

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BANK-MOLIYA AKADEMIYASI**

*Qo‘lyozma huquqida*

UDK: 336.1.07:368

**QURBANQULOVA NAZOKAT QUTBIDDINOVNA**

**SUG‘URTA KOMPANIYALARI MOLIYASINI SAMARALI TASHKIL  
ETISH YO‘LLARI**

**08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»**

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. N.X.Xaydarov**

**Toshkent – 2025**

## MUNDARIJA

|                                                                                                                |            |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                             | <b>3</b>   |
| <b>1-bob. SUG‘URTA KOMPANIYALARI MOLIVASI NAZARIY VA TASHKILY ASOSLARI.....</b>                                | <b>12</b>  |
| 1.1. Sug‘urta kompaniyalari molivasining mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari .....                     | 12         |
| 1.2. Sug‘urta kompaniyalarida yuzaga keladigan molivaviy munosabatlar tizimi.....                              | 25         |
| 1.3. Xorijiy sug‘urta kompaniyalarida molivaviy munosabatlar ko‘lami va tashkiliy xususiyatlari .....          | 35         |
| Birinchi bob bo‘yicha xulosa .....                                                                             | 48         |
| <b>2-bob. SUG‘URTA KOMPANIYALARI MOLIVASINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI .....</b>                                | <b>50</b>  |
| 2.1. Sug‘urta kompaniyalarining daromad va xarajatlari tahlili.....                                            | 50         |
| 2.2. Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyat tahlili .....                                            | 71         |
| 2.3. Sug‘urta kompaniyalarida foyda taqsimoti va dividend to‘lovlari tahlili.....                              | 81         |
| Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa .....                                                                             | 93         |
| <b>3-bob. SUG‘URTA KOMPANIYALARI MOLIVASINI SAMARALI TASHKIL ETISH MASALALARI .....</b>                        | <b>96</b>  |
| 3.1. O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari molivasidagi mavjud muammolar va ularni hal qilish yo‘llari .....    | 96         |
| 3.2. Sug‘urta kompaniyalari molivasini samarali tashkil etish orqali biznes rivojini ta‘minlash yo‘llari ..... | 106        |
| Uchinchi bob bo‘yicha xulosa .....                                                                             | 118        |
| <b>XULOSA .....</b>                                                                                            | <b>121</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>                                                                | <b>123</b> |

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyoti va insoniyat hayoti risklardan holi emas. Shunday sharoitda global miqyosda sug'urta bozorini rivojlantirish, sug'urta kompaniyalari moliyasini samarali tashkil etish uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro hisobotlarga ko'ra, "Jahon sug'urta bozori 2023 yilda 7,5 foizga o'sdi, bu 2006 yildan beri eng yuqori o'sish sur'atidir. 2024 yilda global sug'urta bozorining o'sish sur'ati qariyb 5,5%ni tashkil etdi. 2034 yilga borib sug'urta mukofotlari hajmi dunyo bo'yicha 11,173 trillion yevroga yetishi kutilmoqda".<sup>1</sup> Bunda o'sish asosan hayot sug'urtasi segmentida kuzatilishi, ayniqsa, Osiyo qit'asida o'sish sur'atlari yuqori bo'lishi kutilmoqda.

Jahonda sug'urta kompaniyalari moliyasini samarali tashkil etish orqali sug'urta bozorini rivojlantirishga doir qator yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sug'urta kompaniyalari investitsion jozibadorligini oshirish orqali bozor kapitallashuvini oshirish imkoniyatlari, fond bozori rivojlangan sharoitda hayot sug'urta polisini sotib olgan shaxslarning investor sifatida aksiyalar bozoridagi faolligi tadqiqi, sug'urta mukofotlarini jamg'arish, sug'urta zaxiralarini shakllantirish va sug'urta majburiyatlari bo'yicha to'lovlar optimal nisbatini prognoz qilish, sug'urta majburiyatlarining uzoq muddatli tabiati va da'vo to'lovlari bilan bog'liq noma'lumlik mavjudligi sharoitida sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash, sug'urta bozori regulyatori talablarining sug'urta kompaniyalari investitsion strategiyasiga ta'siri, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida sug'urta kompaniyalarining yashil va raqamli transformatsiyasi masalalariga doir xalqaro tadqiqotlar bugungi kunda alohida ajralib turibdi. Shuningdek Solvency II talablari asosida sug'urta kompaniyalari kapitali yetarliligini baholash, risklarni boshqarish strategiyalari asosida aktiv va majburiyatlarni o'zaro muvofiqlashtirish, investitsiya portfelini ESG standartlariga moslashtirish, sug'urta bozorida InsurTech texnologiyalarini

---

<sup>1</sup> Allianz Global Insurance Report 2024: Transformative Years. [https://www.allianz-asiapacific.com/news/2024-05-24-allianz-global-insurance-report-2024-transformative-years.html?utm\\_source](https://www.allianz-asiapacific.com/news/2024-05-24-allianz-global-insurance-report-2024-transformative-years.html?utm_source)

muvaqqiyatli qo'llash, iqlim o'zgarishlari va global isish sharoitida sug'urtaga doir moliyaviy munosabatlar noaniqligi masalalari jahon miqyosida tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib turibdi.

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalari soni pasayish tendensiyasiga egaligi, aksariyat sug'urta kompaniyalari o'z aksiyalarini fond bozorida ochiq yoki ommaviy joylashtirishga intilmasligi, dividend siyosatiga yetarlicha e'tibor qaratilmasligi tufayli sug'urta kompaniyalari investitsion jozibadorligi umumiy nuqtai nazardan pastligi, respublikamizdagi jamiki sug'urta kompaniyalari bozor kapitallashuvi hajmi xorijiy davlatlardagi bitta sug'urta kompaniya bozor kapitallashuvi miqdoridan ham pastligi, global sug'urta bozoridagi keskin raqobat sharoitida milliy sug'urta kompaniyalari raqobatdoshlik darajasi pastligicha qolayotganligi, fond bozori rivojlanmagan sharoitda sug'urta kompaniyalari investitsion faolligining ham pastligi, xalqaro amaliyotda sug'urta kompaniyalari asosiy foydasi investitsion faoliyat hisobiga shakllanishiga qaramasdan, milliy sug'urta kompaniyalari foydasi asosan sug'urta hodisasi ro'y bermagan sharoitda sug'urta mukofotining foydaga o'tkazilishi hisobiga shakllanayotganligi, aholining sug'urta bozoriga ishonchi pastligi kabi muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Mazkur jihatlar o'z-o'zidan mamlakatimizda bu borada tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Mazkur ilmiy tadqiqot O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 noyabrdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-730-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4412-son qarori, 2021 yil 23 oktyabrdagi "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5265-son qarori, 2024 yil 1 martdagi

“Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-108-son qarori va boshqa ushbu sohadagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda va xorijda sug‘urta bozorini rivojlantirishga bo‘lgan zarurat asosida sug‘urta kompaniyalarini moliyasisini samarali tashkil etishga doir tadqiqotlar doimiy tarzda o‘tkazib kelinmoqda. Bunda xorijlik iqtisodichi olimlardan D.F.Babbel, A.M.Santomero, M.J.Browne, J.M.Carson, R.E.Hoyt, J. D.Cummins, M.A.Weiss, S.P.D’Arcy, R.W.Gorvett, D.Cavapozzi, E.Trevisan, G.Weber, M.Eling, H.Schmeiser, Han Hou, Su-Yin Cheng, S.E.Harrington, G.R.Niehaus, Jane W.Murigu, Olivieri, Annamaria, E.Pitacco, D.A.Zetsche, R.P.Buckley, D.W.Arner, J.N.Barberis; Stefania Sylos Labini, Pasquale di Biase, Elisabetta D’Apolito; Caterina Di Tommaso, Maria Mazzuca, Vincenzo Pacelli; Bo Yang, Yizhi Wang, Dingjun Yao, Yueyang Wang, Xin Xu; Ning Zhang, Yabei Li, Hao Li; Claudia Ceci, Katia Colaneri, Alessandra Cretarola; Caibin Zhang, Zhibin Liang. ilmiy tadqiqot ishlarini alohida e’tirof etish lozim<sup>2</sup>. Bunda sug‘urta kompaniyalari moliyasida raqamli transformatsiya, yashil va

---

<sup>2</sup> Babbel, D. F., & Santomero, A. M. Risk Management by Insurers: An Analysis of the Process. // Journal of Risk and Insurance, 64(2), 1997. - P. 231-270.; Browne, M. J., Carson, J. M., & Hoyt, R. E. Dynamic Financial Models of Life Insurers. // North American Actuarial Journal, 5(2), 2001. – P. 11-26.; Cummins, J. D., & Weiss, M. A. The Global Market for Reinsurance: Consolidation, Capacity, and Efficiency. // Brookings-Wharton Papers on Financial Services, 2000. – P. 159-209.; Cummins, J. D., & Weiss, M. A. Systemic Risk and the U.S. Insurance Sector. // Journal of Risk and Insurance, 80(3), 2013. – P. 489-528. D’Arcy, S.P., & Gorvett, R.W. The Use of Dynamic Financial Analysis to Determine Whether an Optimal Growth Rate Exists for a Property-Liability Insurer. // Journal of Risk and Insurance, 71(4), 2004. – P. 583-615.; Danilo Cavapozzi, Elisabetta Trevisan, Guglielmo Weber. Life insurance investment and stock market participation in Europe. Advances in Life Course Research. Volume 18, Issue 1, March 2013, - P. 91-106. Eling M., & Schmeiser H. Insurance and the Credit Crisis: Impact and Ten Consequences for Risk Management and Supervision. // Geneva Papers on Risk and Insurance - Issues and Practice, 35(1), 2010. – P. 9-34.; Han Hou, Su-Yin Cheng. The dynamic effects of banking, life insurance, and stock markets on economic growth. // Japan and the World Economy. Volume 41, March 2017. – P. 87-98.; Harrington, S. E., & Niehaus, G. R. Risk Management and Insurance. McGraw-Hill, 2003.; Murigu,

barqaror rivojlanishda sug'urtaning roli, risklarni boshqarish va investitsion strategiya muvozanati masalalari alohida o'rganilganligiga guvoh bo'shish mumkin.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan N.H.Xaydarov, X.M.Shennaev, I.X.Abdurahmonov, I.G'.Kenjaev, N.Abdullaeva, M.Aliqulov, M.Hakimzoda, K.M.Ikramova kabilar tadqiqot ishlarida sug'urta kompaniyalari moliyasiga doir masalalar tadqiq qilingan<sup>3</sup>.

Yuqoridagilardan sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish, sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatini samarali tashkil etish, sug'urta kompaniyalarida sug'urta mahsulotlarini individuallashtirish, sug'urta bozorini va sug'urta tarmog'ini rivojlantirish muammolariga doir tadqiqotlar respublikamizda amalga oshirilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Lekin sug'urta

---

Jane W. The determinants of financial performance in general insurance companies in Kenya. University of Nairobi, 2014.; Olivieri, Annamaria, and Ermanno Pitacco. Introduction to insurance mathematics: technical and financial features of risk transfers. Springer, 2015. Zetsche D.A., Buckley R.P., Arner D.W., & Barberis J.N. From FinTech to TechFin: The Regulatory Challenges of Data-Driven Finance\*. New York University Journal of Law & Business, 14(2), 2017. – P. 393-446.; S.S.Labini, Pasquale di Biase, E.D'Apolito. Sustainability strategy and financial performance in the insurance company. // International Review of Economics & Finance. Volume 98, March 2025.; C.Di Tommaso, M.Mazzuca, V.Pacelli. Does SDG-13 disclosure impact the performance of insurance companies? // Research in International Business and Finance. Volume 77, Part A, May 2025.; B.Yang, Y.Wang, D.Yao, Y.Wang, X.Xu. The equilibrium strategy of insurance companies' dividends and reinsurance games. // Economics Letters. Volume 245, December 2024.; N.Zhang, Y.Li, H.Li. Regulatory penalties and the growth of the insurance companies: Empirical evidence from China. // Finance Research Letters. Volume 75, April 2025.; C.Ceci, K.Colaneri, A.Cretarola. Optimal reinsurance and investment under common shock dependence between financial and actuarial markets. // Insurance: Mathematics and Economics. Volume 105, July 2022, Pages 252-278. C.Zhang, Z.Liang. Optimal time-consistent reinsurance and investment strategies for a jump–diffusion financial market without cash. // The North American Journal of Economics and Finance. Volume 59, January 2022.

<sup>3</sup> Хайдаров Н.Х. Суғуртанинг капитал бозорини ривожлантиришдаги ўрни ва аҳамияти. // Рақамли иқтисодиёт шароитида капитал бозорини ривожлантириш ва бошқариш: муаммолар ва замонавий ечимлар. Республика илмий-амалий онлайн-офлайн конференция материаллари – Тошкент, 2024. – Б. 4-11.; Shennayev X.M. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 84 б.; Abduraxmonov I.X. O'zbekiston Respublikasida sug'urta tarmoqlarini rivojlantirishning konseptual asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023. – 78 б.; Kenjaev I.F. Суғурта ташкилотлари инвестиция фаолияти сифат ва самарадорлигини ошириш йўллари. // Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил. 2025 йил 1-сон. – Б. 332-340.; Абдуллаева Н. Суғурта компанияларининг фонд бозоридаги фаолиятини такомиллаштириш. PhD илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс.автореф. Тошкент, 2022. – 59 б.; Алиқулов М. Суғурта ташкилотларининг инвестицион фаолиятини такомиллаштириш йўллари. PhD илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс.автореф. Тошкент, 2022. – 59 б. Ҳамраева Ф.Ш. Ўзбекистонда мажбурий суғурта турларини такомиллаштириш. PhD илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. Тошкент, 2023. – 60 б.; Ҳакимзода М.Ю. Инвестиция лойиҳа рискларини суғурталашни такомиллаштириш истиқболлари. PhD илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. Тошкент, 2023. – 55 б.; Икратова К.М. Рақамли иқтисодиёт шароитида суғурта таклифларини шахсийлаштириш технологиялари. // Илғор иқтисодиёт ва педагогик технологиялар. 2024-йил, 3-сон. – Б. 194-200.; Маврулова Н.А. Умумий суғурта соҳасини ривожлантириш йўналишлари. DSc илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. Тошкент, 2023. – 88 б.

kompaniyalari moliyasi alohida tadqiqot mavzusi sifatida respublikamizda o'rganilmagan bir vaqtda ushbu tadqiqot bo'shliqni to'ldiradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari moliyasini samarali tashkil etishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

sug'urta kompaniyalari moliyasining mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan o'rganish;

sug'urta kompaniyalarida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tizimini tadqiq qilish;

xorijiy sug'urta kompaniyalarida moliyaviy munosabatlar ko'lami va tashkiliy xususiyatlarini tahlil qilish;

sug'urta kompaniyalarining daromad va xarajatlari tahlilini amalga oshirish;

sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati tahlilini o'tkazish;

sug'urta kompaniyalarining foyda taqsimoti va dividend to'lovlarini tahlil qilish;

O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari moliyasida mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

sug'urta kompaniyalari moliyasini samarali tashkil etish orqali biznes rivojini ta'minlash yo'llariga doir taklif va tavsiyalar ilgari surish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari olingan faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sug'urta kompaniyalari moliyasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tizimidan iborat.